



## HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA HIJRON MOTIVI

*Termiz davlat pedagogika institute I bosqich magistranti  
Abdurasulova Gulshan Erkinjon qizi*

*Ilmiy rahbar : O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, Filologiya  
fanlari nomzodi,datsent  
Parda Alimov*

**Annotation:** Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida o'z o'rniiga ega bo'lган, ayollarning o'y-hayollarini, ichki dunyosini o'lmas satrlar orqali yoritib bera olgan ijodkorlarimiz Gulandon Tog'ayeva va Zulfiya ijodidagi hijron motivlari aks ettirilgan. Ularning she'rlarida hijron mavzusining badiiy talqini, ayol qalbining kechinmalari va hijronning poetik ifodasi tahlil etiladi. Shoiralalar she'rlaridagi ruhiy holat, sog'inch, sadoqat va ayriliq motivlari adabiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi.

**Аннотация:** В данной статье отражены мотивы эмиграции в творчестве Гуландон Тогаевой и Зульфия, которые имеют свое место в узбекской поэзии и способны через бессмертные строки осветить женские мысли и внутренний мир. В их стихах анализируются художественная интерпретация темы эмиграции, переживания женской души и поэтическое выражение иммиграции. На основе литературно-теоретического подхода выделены мотивы душевного состояния, тоски, верности и разлуки в стихах поэтов.

**Abstract:** This article reflects the motifs of migration in the works of our artists Gulandon Togayeva and Zulfiya, who have a place in Uzbek poetry and are able to illuminate the thoughts, dreams, and inner world of women through immortal lines. The artistic interpretation of the theme of migration, the



*experiences of the female heart, and the poetic ideal of migration are analyzed in their poems. The motives of mental state, longing, loyalty, and separation in the poetess' poems are highlighted based on a literary-theoretical approach.*

**Kalit so'zlar:** Zulfiya va Gulandon Tog'ayeva she'riyati,hijron konsepti,hijron motivi,ayol qalbi,muhabbat va ayriliq,she'riyatda dard va sog'inch.

**Key words :** Zulfiya and Gulandon Togayeva's poetry,emigration concept,emigration motive,female spirit,love and separation ,pain and longing in poetry.

**Ключевые слова:**поэзия Зулфии и Гуландон Тогаевых ,концепция эмиграции,мотив емиграции ,женский дух,любовь и тоска в поэзии.

Hozirgi she'riyatimizda shoirlar hijronni sevgi iztiroblari,vatandan uzoqlik va inson ruhiyatining murakkab kechinmalari bilan bog'lab tasvirlaydilar.Ayniqsa,Zulfiya va Gulandon Tog'ayeva ijodida hijron konsepti o'ziga xos badiiy talqinlarda namoyon bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiyotining yorqin nomoyondalaridan biri Zulfiyadir.Uning she'riyati qalbning eng nozik tuyg'ularini aks ettiradi.Zulfiya ijodining lirik qahramoni ko'pincha sevgi va ayriliq iztiroblariga duch keladi.Zulfiya bu tuyg'ularni yurakdan kechiradi,xis qiladi.Uning she'rlari inson qismati bilan bog'liq holda tasvirlanadi.Uning "Ko'rGANmidING ko'zlarimda yosh","Sensiz","Sen qaydasan yuragim" kabi she'rlarida "hijron"motivi bilan qurilgan.Masalan,"Korganmiding ko'zlarimda yosh" she'rida yor iztirobi,yorisiz o'tayotgan kunlarni tasvirlaydi.

Sog'inganda izlab bir nishon'



Qabring tomon olar edim yo'1 .

Keltirarding menga bir zamon ,

Endi har chog' men eltaman gul.

Biz yig'ladik tepangda shu kun ,

Keldingmi deb ko'tarmading bosh .

Aytchi senla baxtiyor ular,

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh.[1: ]

Adabiyotshunos olima Maqsuda Qosimovani “Hijron mavzusi o'zbek she'riyatida ayol qalbining chuqur iztiroblarini ifodalashda markaziy mavzulardan biridir.Ayniqsa,Zulfiya she'riyatida bu mavzu sadoqat va yod etishning badiiy timsoliga aylanadi”[ 2: ] degan fikrlari mavjud.

Zulfiya o'zining lirkasida sevgi va ayriliqni yurakdan kechiradi.Uning hijron motivi inson qalbining qismati bilan bog'liq holda tasvirlanadi.Shoira hijronni sevgi fojiasi,yor sog'inchi va qalb iztiroblari orqali ko'rsatadi.

Sen ketding qolmadi endi madadkor,

Qalbimda hijrondan yonddi bir gulxan.

Tunlarim zulmatga to'ldi ey yor,

Sensiz bu hayotim bir qorong'u zindon.

Ushbu satrlarda hijron yor sog'inchi bilan bog'lanib,inson qalbini qamragan iztirob va yolg'izlikni aks ettiradi.Hijronning gulxan sifatida talqin etilishi qalbdagi og'riqni kuchaytiradi va sevgining abadiyligini ta'kidlaydi.Naznimda hijron bu shunchaki ayriliq emas,balki inson qalbining eng teran holatidir .She'rida hijronni tasvirlashi orqali ijodkor ,nafaqat ijodkor balki



kitobxon ham undan ta'sirlanadi,qalb torlari chertiladi,ma'lum ma'noda yurakda qanaqadir jizzillashni xis qiladi.Ana shunda ijodkor maqsadiga yetadi.

Yana bir buyuk xilqat,ovozi tog'lardagi aks-sado misol jaranglab chiqqan o'zbek ijodkori Gulandon Tog'ayeva she'riyatga shaxtam qadamlari bilan kirib keldi.Shoira she'rlarining mavzusi muhabbat,yor,vatan,ona kabi mavzulardan o'rinn olgan.Gulandon Tog'ayeva hijronni inson ruhiyati va o'zlikni anglash jarayoni sifatida tasvirlaydi.Uning she'rlarida insonning ichki iztiroblari hayotiy izlanishlari va falsafiy mulohazalari hijron orqali ochib beriladi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor aytganidek: "Hijron -bu yurakdagi mudom chaqnab turadigan chaqmoq .Yaxshi yozuvchi bu chaqmoqni so'z bilan tutib oladi",- deya ta'riflagan .[2;]

Shoiraning "Sevganlar yig'lasin " she'riga nazar tashlasak,shoiraning ko'nglidagi quyilgan satrlarni yozadi:

Men muhtojman kimgadir bugun,

Sevilmaga yuragim og'ir.

Taqdir xatin ko'tarolmasdan,

Yelkalarim dol bo'lib og'rir.[3;ziyo.uz]

Bilamizki, mumtoz she'riyatimizda qomatga nisbatan dol,alif deb yuritish an'anaga aylangan.Ijodkor ham taqdir bergan yuklarni ko'tarolmay yelkalar dol misol bukilganini,u yuklarni ko'tarish uchun unda na sevilgan yurak,na bosh qo'yish uchun bir yelka borligidan yuragi og'rishi haqida yozadi.

Ijodkor "Meni shuncha yashatdi ,balkim – boy berilgan firoqning dardi" ,- deya hijronga limmo-lim hayotini tasvirlaydi.Shoira nazarida hijron hayotni ma'no bilan to'ldiradi,insonni yurakdan gapiradigan darajagacha olib chiqadi.



Hozirgi o'zbek she'riyatida hijron konsepti inson ruhiyatining murakkabligini aks ettiruvchi muhim mavzu hisoblanadi. Zulfiya va Gulandon Tog'ayeva ijodida hijron o'ziga xos badiiy qirralarda namoyon bo'ladi. Zulfiya sevgi va vatan sog'inchi bilan hijronni yoritgan bo'lsa, Gulandon Tog'ayeva uni falsafiy izlanish va ijtimoiy begonalashuv bilan bog'laydi. Ikkala shoiraning hijron talqinlari zamonaviy she'riyatimizning boyligi va turfa qirralarini ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 1. Zulfiya. "She'rlar". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. To'g'ayeva G. "Ko'nglimda bir ovoz". – Toshkent yozuvchi
3. Karimov M. O'zbek lirik she'riyati: XX asr va XXI asr boshlari. – Toshkent: Fan,
4. Qo'chqorova M. Zulfiya ijodida ayol qalbi va ma'naviyat // O'zbek adabiyoti va san'ati jurnali. – 2021,
5. G'ulomov A. O'zbek she'riyati: an'ana va yangilanishlar. – Toshkent: O'qituvchi